



ALEKSANDR FAYNBERGNING IJODIDA VATAN TIMSOLI

Shukurova Sevinch Bahodir qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Ingliz Filologiyasi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Aleksandr Faynbergning ijodida Vatan timsoli o'ziga xos ravishda namoyon bo'lgan. U o'zining she'rlari va nasriy asarlarida ona yurtga bo'lgan samimiy mehr-muhabbatni chuqur aks ettiradi. Ayniqsa, Toshkent va O'zbekiston manzaralari uning ijodining markaziy motivlaridan biridir. Ushbu maqolada Faynberg ijodida ona yurtga bo'lgan sevgi, tabiat va tarixiy merosga bo'lgan chuqur hurmat yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, milliy urf-odatlar, Toshkent, ona yurt, tabiat obrazi, vatanparvarlik.

Kirish. Aleksandr Faynberg o'zbek she'riyatining eng ko'zga ko'ringan namoyon-dalaridan biri ekanligi shubhasiz. Uning ismi va ishi butunlay o'zbek muxlislari va shoirlari orasida o'zgarmasdir. Faynberg she'riyatida tarixiy va hozirgi davrlar, G'arb va Sharq, millatchilik va baynalmilallik, alohida estetik soha yaratish uchun birlashdi. Aleksandr Arkadevich o'z vatanining haqiqiy vatanparvarligi uchun juda qadrlidir. Aleksandr Faynbergning mumtoz she'riyatning eng yaxshi an'analari va O'zbekiston zaminiga mehr-muhabbat tuyg'ulari singdirilgan beqiyos va noyob asarlari adabiyotimiz tarixida alohida sahifadir. Aleksandr Faynbergni tilidan yoki millatidan qat'i nazar, O'zbekistondagi barcha adabiyot ixlosmandlari yaxshi bilishadi va hurmat qilishadi.

Shoir O'zbekistonni ona vatanim deya jondon ortiq sevdi, ona deya ardoqlagan vataniga mehr-u muhabbat, shukronalik tuyg'ularini izhor etishdan tolmadi. She'rlari hamda nasriy asarlari O'zbekistonning jannatmakon manzaralarini, xalqimizning milliy



urf-odatlarini, yuksak madaniyati va ma'naviyatini tasvirladi. Har bir tasvirni samimiylar, yurakni jiz ettiradigan muhabbat harorati ila jonli va hayotiy ifodalaydi.

O'zbekiston xalq shoiri, Kinomatografiya uyushmasi a'zosi Aleksandr Faynberg Rossiya prezidenti tomonidan O'zbekiston O'rtaqidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo'shganligi uchun Pushkin medali bilan taqdirlandi. Prezidentimizning tashabbusi bilan yangidan bunyod etilgan adiblar xiyobonida mumtoz va zamonaviy adiblarning ulug' namayondalari qatorida Aleksandr Faynberg haykali ham qad rosladi.

Faynberg samimiylar yozuchi, u she'rlaridagi holatlarni tabiiy bo'yoqlarda tasvirlaydi, har qanday bo'rttirishlardan yiroq. She'rlari tabiat manzaralaridan tortib, o'zbek milliy qadriyatlarini, vatanga bo'lgan sevgi, muhabbat, baxt, do'stlik, ijtimoy-hayotiy mavzularni o'z ichiga oladi. "Vatan" nomli she'rida u shunday deydi:

Dalalarni kezdim qadamma-qadam,

Teodolit ko'tarib, o'lchadim tanob.

Loysuvoq uylarda simirdim chalob,

Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom.

Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim –

O'zbekistondadir xokim, turobim.

Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.

She'rdan shuni anglashimiz mumkin-ki, Faynberg uchun yurt dalalari,

loysuvoq uylari, eshiksiz hovlilarini-yu, doim ochiq turadigan uylar, hamma-hammasi qadrli. Yana u nasl-u nasabi, xokini ham shu yurt bilan chambarchas bog'laydi. Bir so'z bilan aytganda she'rlari ko'rinishidan sodda, ammo teran ma'nolarni mujassamlashtira olgan.

"Ona shahrim Toshkentim" nomli nasriy asarida shunday yozadi: "Men Rossiyaning poytaxtiga mehmon bo'lib kelganman. Mana, u bamisoli kaftimning ustida turgandek butun borlig'i bilan ko'rinoqda. O'n sakkizinch qavat derazasidan ushbu shaharning ufqqa cho'zilib ketgan tarxiga boqaman va ich- ichimdan o'kinaman. O'kinaman, o'ksinaman! Bu shahar revolutsiya yillarida mening yolg'izgina onamni



Magadan ostonasiga uloqtirib yuborgan edi. Ko'p yillar o'tgandan so'ng faqatgina Toshkent uni o'z bag'riga oldi va ellik darajali sovuqlarda qolgan vujudini mehr bilan isitdi".

Qalbi quyoshdek issiq, bag'ri keng. oq ko'ngil o'zbek xalqning mehr-u saxovatidan bahramand bo'lganini taqdirning cheksiz inoyati va rahm-u shafqati deb biladi shoir. Agar ota-onam Toshkentga kelmaganida urush payti nemis-fashistlar qirg'inidan omon qolmas edik. balki men hali dunyoga kelmasdanoq juvarmarg bo'lar edim, degan iqrorini takror-takror eshitganmiz. "Onam Moskvada, otam Piterning shundoqqina biqinidagi Gatchina shahrida tug'ilgan. Biroq ular Toshkentga Sibirdan ko'chib kelishgan. Hoynahoy, men aynan shu yerda tug'ilishim uchun ko'chib kelishgan bo'lsa kerak..." Uning otasi Arkadiy Lvovich, onasi Anastasiya Aleksandrovna Faynberg.

Xulosa. Tabiat obrazlari Faynberg she'riyatida ona yurtdagi go'zallikni ulug'lash vositasi sifatida ishlatilgan. Daraxtlar, tog'lar va dalalar orqali Vatan qiyofasi tasvirlanadi. Bu timsollar shoirning ona yurtga bo'lgan mehrini kuchaytiradi. Umuman olganda, adabiyot insonni ruhiyatiga kira oluvchi bir yo'l. Bu yo'lida Aleksandr Faynberg ijodi va she'rlari o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan, ma'naviyatimizni boyita oladigan, inson qalbini to'lqinlantira oladigan bir tarmoqdir. Adabiyotimizni dunyoga tanish uchun qilgan mehnatlari xalqimiz qalbidan o'rinn egallagan.

Foydalaniman Adabiyotlar:

1. Sirojiddinov.Sh, Jo'rayeva.G, U.Hamdam, Abdullayeva.M A program and methodical manual for studying Alexander Arkadyevich Feinberg's life and work. Tashkent -2020.
2. Aleksandr Faynberg. Qoralanmaga qasida. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-sheriysi/aleksandr-faynberg-1939-2009>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
5. Rashidova Amina O'ktam qizi. Aleksandr Faynberg ijodiy merosi. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024 March